



## XALQ DEPUTATLARI DANG'ARA TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 25-yanvar

VII-4-6-11-155-K/25

Dang'ara tumani

### **O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Dang'ara tumani bo'limi tomonidan 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro Byurosi tuman bo'limi boshlig'i Sh.A.Fayozovning byuro tomonidan 2024-yilning 12 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotini xalq deputatlari tuman Kengashining sessiyasida bildirilgan takliflar, fikr-mulohazalardan kelib chiqib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

- 1 O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro Byurosi tuman bo'limi boshlig'i Sh.A.Fayozovning byuro tomonidan 2024-yilning 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Majburiy ijro byurosining tuman bo'limi (Sh.A.Fayozov)ga:
  - sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro qilinmaslik holatlarini aniqlash, bartaraf etish va ularning oldini olishda ichki ishlar organlari hamda boshqa huquqni muhofaza va nazorat qiluvchi idoralari bilan o'zaro hamkorlik qilish;
  - tijorat banklari foydasiga kredit qarzdorliklarini undirish hamda undiruvni garov mulklariga qaratish bilan bog'liq ijro hujjatlari bo'yicha garov mulklarini o'z vaqtida xatlash, savdoga chiqarish choralarini ko'rish;
  - davlat foydasiga, jumladan, soliq qarzdorligi, davlat boji va IIB YHXBning qarorlari ijrosi bo'yicha belgilangan rejalar bajarilishini ta'minlash;
  - aliment qarzdorligini to'lamagan qarzdorlar bilan bog'liq ijro hujjatlarini tahlil etish, natijasi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rib borish;
  - murojaatlarni ro'yxatga olish va ko'rib chiqish, natijalarini to'liq o'rganish, hal qilinishi ustidan doimiy nazorat olib borish, qabullarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashish vazifalari yuklatilsin.
3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (R.Akramov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (I.Usmonov)ga kambag'allikni qisqartirish va bandlik tizimi xodimlari hamda hokim yordamchilari bilan ishsiz aliment qarzdorlarini nochor

ahvoldan chiqarish, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar belgilash va bir oy muddatda ularning bandligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Kengashga axborot kiritish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimligi oila va xotin-qizlar bo'limi (M.Azizova), Majburiy ijro byurosining tuman bo'limi (Sh.A.Fayozov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (I.Usmonov)ga tumanda mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlari, aliment to'lovchilar soni, to'lov-undiruv miqdori va boshqa aliment to'lovchilarga oid ma'lumotlar, tashkil etiladigan "mehnat yarmarkalari", bandligi ta'minlanmagan qarzdorlar bandligini ta'minlashda hamkorlikdagi ishlarni har oyda tahlil etib, muntazam axborot-ma'lumot almashilishini amalga oshirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bandlari ijrosi yuzasidan belgilangan mas'ul ijrochilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha har chorakda muhokama qilish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritib borilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (U.Usmonov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilda 24-noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan majburiy ijro byurosi tuman bo'limi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (B.Butabekov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV  
SHUXRATJON  
NURMUXAMMADOVICH